

# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni



(yanvar-mart oylarida, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,9** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- y. 90,2%



2022- y. 90,5%




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,8 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**449**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**8 627**

Ishlab chiqarish sanoati

**53**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**179**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 9308 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 %ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 6,4 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 0,7 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 20,9 %ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 1,1 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) kamaygan.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korruxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korruxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,3** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**8,3** foizga oshdi



## Mikrofimralar




## Kichik korruxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**10,9** foizga oshdi



## Oilaviy korruxonalar




**34,6** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korruxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **12,9** foizga oshdi




## Xususiy korruxonalar





## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 957 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,3 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 8,9 %ga (jami qurilishdagi ulushi 52,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 26,1 %ga (jami qurilishdagi ulushi 8,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 4,2 %ga (jami qurilishdagi ulushi 38,4 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 14 981 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,4 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 11,1 %ga (jami savdodagi ulushi 67,8 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 19,8 %ga (jami savdodagi ulushi 25,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 15,4 %ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

10

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

826



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

28



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

27



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



366

yashash bo'yicha xizmatlar



3 433

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 799 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 6,7 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 17,7 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,6 %) o'sishidir.


# Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

12



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 5060 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 540 taga yoki 11,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 598 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 556 taga yoki 13,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 208 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106 taga yoki 33,8 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 37007 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2650 taga yoki 7,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 34128 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3594 taga yoki 11,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1498 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 317 taga yoki 17,5 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 1 567 tani tashkil etib, ulardan 1 482 tasi yoki 94,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 147 taga yoki 11,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 57 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi  
(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1567</b>	<b>726</b>	<b>841</b>
Oqqo'rg'on t.	21	8	13
Ohangaron t.	87	35	52
Bekobod t.	9	6	3
Bo'stonliq t.	71	36	35
Bo'ka t.	14	5	9
Quyi Chirchiq t.	55	28	27
Zangiota t.	200	84	116
Yuqori Chirchiq t.	121	53	68
Qibray t.	169	76	93
Parkent t.	25	12	13
Piskent t.	23	11	12
O'rta Chirchiq t.	106	40	66
Chinoz t.	28	13	15
Yangiyo'l t.	90	34	56
Toshkent t.	87	51	36
Nurafshon sh.	67	28	39
Olmaliq sh.	52	14	38
Angren sh.	112	74	38
Bekobod sh.	28	18	10
Ohangaron sh.	45	23	22
Chirchiq sh.	91	55	36
Yangiyo'l sh.	66	22	44

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.: (71) 202-86-83**